

## ANDIJON SHAHRIDA HAYDOVCHILAR ISHTIROKIDA YOL TRANSPORT HODISASINI TAHLILNI O'RGANISH 2020-2022 YIL MISOLIDA.

**Erkinov Asrorbek Abdurashid o'g'li**

*Andijon mashinasozlik instituti Andijon shahar, O'zbekiston*

*"Transport va logistika" fakulteti*


*"Yo'l harakatini tashkil etish" yo'nalishi 4-kurs 33-20-guruhi talabasi.*

Har bir viloyatda bo'lgani kabi Andijon viloyatida avtomobillarning soni keskin ko'payishi oqibatida transport vositalarining harakati keskin jadallashib bormoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki. Andijon viloyati transport vositalarining keskin ko'payishi natijasida piyodalar va velosapedchilar, transport vositasi va Yo'lovchilari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelib turmoqda. Shuningdek, Yo'l-transport hodisalari natijasida ko'plab yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlar, shahar ko'chalari, aholi yashaydigan joylardan o'tadigan Yo'llar mintaqasidagi yuqori darajadagi shovqin, havo basseynlarining ifloslantirishi, ko'chalarda to'xtab turuvchi avtomobillar tomonidan to'sib qo'yishlari, transportlarning ushlanib qolishlari va harakat tezliklarining keskin tushib ketishidan iborat bo'ladi [1].

Avtomobil Yo'llarida, shahar ko'cha va maydonlarida transport vositalarining normal harakat rejimining buzilishi oqibatida insonlar halok bo'lishiga, tan jarohati olishiga, shuningdek, transport vositalariga va undagi yuklarning zarar ko'rishiga, Yo'ldagi sun'iy inshootlarning zararlanishiga yoki boshqa turdagi moddiy zararlar etkazishga sababchi bo'luvchi halokatlarga Yo'l-transport hodisasi deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra Yo'l-transport hodisasida ikkita omil bo'lishi tavsiflidir, bular: insonlarning o'limi, tan jarohati yoki katta miqdordagi moddiy zarar, shuningdek, biron-bir transport vositasining harakatda bo'lishidir. Harakat qatnashchilari tomonidan Yo'l harakati qoidalariga amal qilmasliklari kuzatilib kelmoqda. Bular haydovchilarning qoidaga amal qilmasligi ko'plab kuzatilmoqda [2].

Quyidagi gistogrammada murakkab tizim ishtirokchilari o'rtasida Yo'l transport hodisasi sodir etilishiga sababchi bo'lish bo'linishi keltirilgan.





#### 1-diagramma


Bugungi kunga kelib murakkab tizim ishtirokchilari o'rtasida Yo'l transport hodisasi (YTH) ni sodir etilishi ko'payib bormoqda. Menga berilgan vazifadan kelib chiqib "Shaxrixon tumani hududida piyodalar va velosipedchilar va velosipedchilar bilan sodir etilgan YTHlarni o'rganish va tahlil qilish" mavzusida diplom loyihasini tayyorlash uchun ushbu chorraha haqida ma'lumotlarni topib o'rganib uni tahlil qilib o'z xulosa va takliflarimni bermoqchiman [3].

Transport vositasini boshqarayotganda harakat qatnashchisini qoidaga amal qilmasdan turli hil Yo'l transport hodisasini sodir etilishi kuzatilmoqda. Bular, quyida diagramma orqali ko'rsatilgan. Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, turli hil sabablarga ko'ra Yo'l transport hodisasi (YTH) sodir bo'lmoqda. Agar YHHB hodimlari tomonidan quyidagicha tartibsizliklarni oldini olish harakati yuqori darajada amalga oshirilsa o'ylaymanki, bundan Yo'l transport (YTH) soni keskin kamayishiga olib keladi [4].

Haydovchining qoidaga amal qilishi-**44.1%**, Haydovchining transport vositasini mast holatda boshqarishi-**3.5%**, Haydovchi transport vositasini boshqarishda telefondan foydalanish-**15.3%**, Haydovchi transport vositasini hujjatsiz boshqarish-**5.4%**, Haydovchining ro'lda uxlab qolishi-**3.3%**, Haydovchi tezlikga amal qilmasligi-**9.4%**, Piyoda qoidaga amal qilmasligi-**8.3%**, Haydovchi Yo'l belgiga amal qilmasligi-**8.2%**, Velosipedchi tomonidan Yo'l harakat qoidalariga amal qilmaslik-**5%**. ( 2-diagramma) [5].



## HARAKAT QATNASHCHILARINING QOIDAGA AMAL QILMASLIGI




### 2-diagramma

Andijon viloyati bo'yicha Yo'l transport hodisalarining ko'rsatkichlari 3-diagrammada keltirilgan, 2020-2021-2022 yillar bo'yicha taqqoslangan. 2020 yilda jami YTH soni 386 ta, halok bo'lganlar soni 96 ta, tan jarohat olganlar 290 tani, 2020 yil jami YTH soni 245 ta, halok bo'lganlar soni 68 ta, tan jarohat olganlar 177 ta, 2021 yilda esa jami YTH soni 193 ta, halok bo'lganlar soni 43 ta, tan jarohat olganlar 150 ta tashkil qilmoqda. Diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020-yil 16-martdan boshlab butun Respublikada pandemiya sababli avtomobil transportini boshqarishga cheklovlar sababli YTH lari soni sezilarli kamaygan. Shunga qaramasdan, belgilangan vaqt ichida harakatlanish davomida ham YTH si sodir bo'lgan va halok bo'lganlar va jarohatlanganlar ham soni bir muncha kamaygan [7].

Yana shuni aytish mumkinki, Andijon viloyat hududida piyodalar va velosipedchilar bilan sodir etilgan YTHlarni ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil qiladi, buni diagrammadan ko'rish mumkin (4-diagramma): diagrammada asosan Yo'l transport hodisalarining 9 ta turi bo'yicha 2020-2021 yillardagi ma'lumotlar keltirilgan (**3-diagramma**) [8].





### 3-diagramma

Yana shuni aytish mumkinki, Shaxrixon tumani hududida piyodalar va velosapedchilar va velosipedchilar bilan sodir etilgan YTHlarni ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil qiladi, buni diagrammadan ko'rish mumkin (4-diagramma): diagrammada asosan Yo'l transport hodisalarining 9 ta turi bo'yicha 2020-2021 yillardagi ma'lumotlar keltirilgan [9].

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra Yo'l transport hodisasi quyidagi 9 turdan iborat.

1. **To'qnashuv.** Bunga transport vositalarining qarama-qarshi tomonidan, bir yo'nalishda yoki yon tomondan harakatlanayotgan vaqtdagi to'qnashuvi, shuningdek, temir Yo'l transporti bilan avtomobil transportining to'qnashuvi kiradi. Bu turdagi Yo'l transport hodisasiga to'satdan to'xtagan transport vositasi bilan to'qnashuv ham kiradi 2020 yilda 60 ta 2021 yilda 32 ta 2022 yilda 23 ta kuzatilgan [10].


2. **Ag'dirilib (to'ntarilib) ketish.** Harakatlanayotgan piyodalar va velosapedchivositasi turg'unligini yo'qotib ag'darilishi. Bu turdagi Yo'l transport hodisasiga to'qnashuv, to'xtab turgan transport vositalariga yoki to'siqqa urilish natijasida transport vositalarining ag'darilishi kirmaydi. Ag'darilib ketish Yo'l transport hodisasida asosan bitta transport vositasi ishtirok etadi 2020 yilda 28 ta 2021 yilda 14 ta 2022 yilda 12 ta kuzatilgan [11].

3. **Turgan transport vositasini urib ketish.** Harakatlanayotgan piyodalar va velosapedchivositasining harakatlanmayotgan transport vositasiga urilishi. Bu turdagi Yo'l transport hodisasiga birdaniga to'xtagan transport



vositasining urilishi kirmaydi 2020 yilda 26 ta 2021 yilda 22 ta 2022 yilda 11 ta kuzatilgan [12].

4. **To'siqlarga urilish.** Transport vositalarining qo'zg'almaydigan to'siqlar urilishi. Yo'l to'siqlariga, daraxtlarga va hokazolarga urilishi 2020 yilda 39 ta 2021 yilda 23 ta 2022 yilda 20 ta kuzatilgan [13].



#### 4-diagramma

5. **Piyodalar va velosapedchilarni bosib (urib) ketish.** Transport vositalari piyodalar va velosapedchilarni urib yoki piyodalar va velosapedchilar transport vositalariga urilishi, shuningdek, tashilayotgan yukdan (yog'och, truba plita va h.k) piyodalar va velosapedchilarning shikastlanishi ham mumkin 2020 yilda 155 ta 2021 yilda 97 ta 2022 yilda 112 ta kuzatilgan [14].


6. **Velosipedchini bosib (urib) ketish.** Transport vositasi velosipedchini bosishi (yoki) velosipedchi transport vositasiga urilishi 2020 yilda 55 ta 2021 yilda 42 ta 2022 yilda 15 ta kuzatilgan.

7. **Aravani bosib (urib) ketish.** Harakatlanayotgan piyodalar va velosapedchivositasi harakatlanayotgan aravani urib ketishi 2020 yilda 10 ta 2021 yilda 6 ta 2022 yilda 3 ta kuzatilgan [15].

8. **Hayvonlarni urib (bosib) ketish.** Transport vositasi yovvoyi yoki uy hayvonini urib ketishi 2020 yilda 5 ta 2021 yilda 3 ta 2022 yilda 1 ta kuzatilgan.

9. **Boshqa qolgan Yo'l transport hodisasi.** Bu turdagi Yo'l transport hodisasiga tramvayning relesdan chiqib transport vositasini yoki piyodalar va velosapedchilarni urishi, yuk avtomobillaridan yuk tushib ketishi natijasida





bo'ladigan falokatlar, passajirning yiqilib tushishi va h.k. 2020 yilda 8 ta, 2021 yilda 6 ta, 2022 yilda 1 ta kuzatilgan [16].


Yo'l transport hodisasining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillarga quyidagilarni sanab o'tish mumkin, Yo'llarning xolati, piyodalar va velosapedchilar tomonidan Yo'l harakati qoidalarini buzilishiga olib kelinishi, transport vositasining texnik xolatlariga bog'liq bo'ladi. 5-diagrammadan ko'rinib turibdiki, Qo'qon shahrida piyodalar va velosapedchilar tomonidan Yo'l harakati qoidalarini buzishlik kuzatilgan bo'lsa undan kelib chiqib bolalar ishtirokidagi Yo'l transport hodisalarining ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil qiladi 2020 yil 155 tani, 2021 yili esa 97 tani 2022 yilda esa 112 tani. Undan o'lim bilan yakunlanganligi 2020 yil 38 tani 2021 yil 21 tani 2022 yilda 11 tani, tan jarohat olganlar 2020 yilda 117 tani, 2021 yilda 76 tani 2022 yilda esa 101 tani tashkil qilgan. 2020 yilga nisbatan 2021 yilda piyodalar va velosapedchilar tomonidan pandemiya sababli kamroq Yo'l qoidasini buzishlari va baxtsiz hodisalar ro'y berishi kuzatilgan [17].

“A-Y-H-P-M” tizimi optimal ravishda faoliyat ko'rsatishda tizimdagi avtomobil, haydovchi, Yo'l, piyoda va muhit tashkil etuvchilarining alohida hamda ularning birgalikdagi A-H, H-Y, Y-P, A-P va boshqa tasniflari katta ahamiyatga ega.

Avtomobil transportining konstruktiv o'lchamlari (parametrlari) Yo'l harakatining tasnifiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda avtomobilning geometrik o'lchamlari tortish va tormozlanish sifati, haydovchi ish joyining qulayligi va yengil boshqarilishi muhim o'rin egallaydi [18].



### YTHsining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar.



### 5-diagramma

Avtomobil Yo'li "A-Y-H-P-M" tizimi faoliyatiga o'zining geometrik elementlari o'lchamlari va transport-ekspluatatsion sifatining o'zgarishi orqali ta'sir etadi.


Yo'l harakati xavfsizligi eng avvalo haydovchining ishonchligiga, uning tayyorgarligiga va ishchi qobiliyatiga bog'liq.

Piyodalar va velosapedchilar Yo'l harakatida alohida o'rin egallaydilar. Ular Yo'l harakati qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari real Yo'l sharoitlarida harakat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Yo'l transport hodisalarini kamaytirish maqsadida keskin ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, kasb xunar kollejlari, litseylar, maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig'ini, qishloq fuqarolik yig'inlarida Yo'l harakati xavfsizligi bo'limlari hodimlari tomonidan "Yo'l harakati qoidalari", "Piyodalar va velosapedchilarning madaniyati" va "Haydovchilarning etikasi" mavzularida davra suxbatlari, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar hamda targ'ibot va tashviqot ishlari kabilardir.



## Berilgan chorrahada ro'yhatga olingan YTH larini tahlili



### 6-diagramma

Kuzatishlardan shuni aytish joizki, dastlab ushbu chorrahada ta'mirlash ishlari olib borilgan va ta'mirlash ishlari deyarli oxiriga yetkazilmagan, ya'ni chorrahada kerakli Yo'l belgilari va harakat ishtirokchilari uchun muhit yetarlicha to'liq joriy etilmagan, quyidagi rasm orqali dastlabki holatni ko'rishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI .


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-son qarori.
2. **Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400**
3. Shoyadbek, T. (2023). LACETTI GENTRA AVTOMOBILINING NAZORAT-OLCHOV ASBOBLARI PANELIGA GAZ BALLONLI MOSLAMA UCHUN DATCHIK ORNATISH LOYIHASI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(32), 79-81.
4. Axmadjonovich, T. R. S. (2023). YENGIL AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN DETALLARINING YEYILISHINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 332-336.





5. Qosimov, I., & To'raev, S. (2023). ZAMONAVIY AVTOMOBILLARINING RUL TORTQILARIDA QO'LLANILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 1854-1856.
6. Ahmadjonovich, T. R. S. A. I., & KOMPOZITSION, Y. B. G. B. I. (2022). POLIMER MATERIALLAR TAXLILI. *Ilmiy impuls*.
7. Axmadjonovich, T. S. (2023). KOMPOZIT POLIMER MATERIALLARNING Atrof-muhitga VA INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI. *Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali*, 11, 666-669.
8. Baynazarov, Khayrullo; Turayev, Shoyadbek; Giyasidiniv, Abdumannob; Ismailov, Sarvarbek; Maxammadjonov, Nurmuxammad; Sotvoldiyev, Xasanboy Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation *E3S Web of Conferences* 2023.
9. Mamadzhanov, Bahodirjon; Shukuraliev, Abrorbek; Mannobboev, Shukhratbek; Turaev, Shoyadbek; Patidinov, Aslidin; Mavlyanova, Shakhnoza Dielectric separation *E3S Web of Conferences* 2023
10. Шипулин Ю. Г., Холматов У. С. Интеллектуальные дискретные системы для контроля и управления параметрами технологических процессов на основе волоконных и полых световодов //Монография, Андижан.–2018.–С. – 2018. – С. 1-140.
11. Холматов У. С. Анализ шумовых факторов в волоконных и полых оптических датчиках информационно-измерительных систем //Технология новых материалов: перспективы развития полимерных композиционных материалов, применяемых в машиностроении». Международной научно-практической конференция, Андижан. – 2022. – С. 197-201.
12. Холматов У. С. СТАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ДИСКРЕТНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ДЛЯ АВТОМАТИЧЕСКОГО ИЗМЕРЕНИЯ ПЕРЕМЕЩЕНИЙ И РАЗМЕРОВ //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2023. – №. 2. – С. 190-201.
13. Холматов У. С. РАСШИРЕНИЕ ТЕОРИИ АДАПТИВНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ ПРИМЕНИТЕЛЬНО К МНОГОСВЯЗНЫМ ОБЪЕКТАМ //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2023. – №. 1. – С. 376-382.
14. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015.





15. Zhumaev O. A. et al. PROBLEMS OF OPTOELECTRONIC TRANSDUCERS FOR GAS-MEASURING INSTALLATIONS DESIGN AND DEVELOPMENT //ВЕСТНИК. – С. 113.

16. To'lamirzayevich R. D. TRANSPORT VOSITALARIDAN CHIQAYOTGAN ZAHARLI GAZLAR MIQDORINI TAHLILI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 139-144.

17. To'lamirzayevich R. D. AVTOMOBIL YO 'LLARIDA HARAKATLANAYOTGAN HAYDOVCHI VA PIYODALARNING XAVFSIZ HARAKATINI TA'MINLASH //SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 15. – С. 31-36.

18. To'lamirzayevich R. D. AVTOMOBILLARDAN CHIQAYOTGAN ZAXARLI GAZLARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI O 'RGANISH //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 134-138.

